

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“IQTISODIYOT” FAKULTETI**

**«BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT» KAFEDRASI**

**5340600-“Moliya” ta‘lim yo‘nalishi  
IV–kurs, M-40 guruh talabasi Abdurashidov Temurbekning  
“Mintaqa qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolari”  
(Qashqadaryo viloyati Moliya boshqarmasi misolida)  
mavzusidagi**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi:**  
“Moliya” ta‘lim yo‘nalishi  
itiruvchisi IV-kurs talabasi  
T.Abdurashidov

**Ilmiy rahbar:**  
“Buxgalteriya hisobi va audit”  
kafedrasi professori  
i.f.d.A.F.Xurramov

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi  
2-sonli 22.07.2011 yil

**Qarshi-2011 yil**

**“Mintaqa qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolari”  
(Qashqadaryo viloyati Moliya boshqarmasi misolida)**

**REJA:**

**Kirish**

**I-bob. Respublika iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning mintaqaviy hususiyatlari va undagi moliyaviy muammolar tavsifi.**

- 1.1. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning mintaqaviy xususiyatlari.
  - 1.2. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘llari.
  - 1.3. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolari.
- I-bob bo‘yicha xulosa.

**II-bob. Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolari va unga ta‘sir etuvchi omillar tahlili.**

- 2.1. Moliyaviy muammolar tarkibi va uni keltirib chiqaruvchi omillar.
  - 2.2. “Mintaqa qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolari” (Qashqadaryo viloyati Moliya boshqarmasi misolida).
  - 2.3. Fermer xo‘jaliklari bilan moliya muassasalari o‘rtasidagi tashkiliy va huquqiy meyoriy hujjatlarning ijrosi va unga tasir etuvchi omillar tahlili.
- II-bob bo‘yicha xulosa.

**III-Bob. Mintaqa qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish yullari.**

**Xulosa va takliflar.**

**Foydalanilgan adabiyotlar**

## Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohatlarni asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi taraqqiyotini ta‘minlash orqali aholi turmush darajasini oshirishdan iborat. Xususan, Prezidentimiz I.A.Karimov ta‘kidlaganlaridek “Barcha sharoitlarning iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asal maqsadi insonga munosib turmush va faoliya sharoitlarni vujudga keltirishdan iborat”<sup>1</sup>. Ushbu ustuvor maqsadga erishida ya‘ni xalq farovonligini ta‘minlashda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining xususiyatli jihatlari va sohadagi mavjud muammolarni tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, xozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham ushbu sohani rivojlantirish iqtisodiyotining boshqa tarmoqlaridagi muammolarining holati hisoblanadi.

Xususan, respublikamizda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning ahamiyati katta bo‘lib aholi istemolidagi oziq-ovqat mahsulotlarining 95 foizi, sanoat xom-ashyosining 95-97 foizi shu tarmoq xissasiga to‘g‘ri keladi, va aholining qariyb 63 foizga yaqini qishloqlarda yashaydi. Tahlillar ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, o‘ziga xos xususiyatlari bilan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan ajralib turadi. Bunda, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi faqat inson faoliyatiga bog‘liq bo‘lmasdan, balki tabiat xodisalariga ham bevosita bog‘liqligi; qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarilishi mavsumiy xarakteriga egaligi; bir iqtisodiy davr mobaynida sarflanadigan xarajatlar bilan olinadigan xosil o‘rtasidagi davriy tafovutning mavjudligi; qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning mintaqalar bo‘yicha turli xususiyatlariga egaligi; qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo‘lib yerning inson mehnatining mahsuli bo‘lmasdan tabiiy ekanligining o‘zi ham tarmoqning bir qator xususiyatlarni ifodalaydi.

Biroq, Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Zero, jahon xo‘jaligida kuzatilayotgan inqirozning ta‘siriga qaramasdan, mamlakatimizda erishilayotgan makroiqtisodiy tarmoqlarining salmoqli hissasi kuzatilmoqda. Xususan, 2009 yil yakunlariga ko‘ra, “mamlakatimizda ilk bor 7,3 mln tonnadan ortiq don, shu jumladan 600 mln 600 ming tonna paxta xom ashyosi tayyorlandi”<sup>2</sup>, 2010 yil yakunlaridan esa, “qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab-chiqarish 2009 yilga nisbatan 6,8 foizga, 2000 yilga nisbatan esa, 1,8 barobar oshgani ham shundan dalolat beradi”<sup>3</sup>. Ushu ijobiy natijalarning ta‘minlashida Qashqadaryo viloyatining ham o‘rni va salohiyati yuqori chunki Qashqadaryo viloyati Respublikamizning janubiy mintaqalaridan biri bo‘lib, respublikada yetishtirilayotgan paxta va g‘allaning eng katta qismi shu viloyat hissasiga to‘g‘ri keladi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” – T.: O‘zbekiston, 1995, 11 b.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Asosiy vazifamiz taraqqiyoti va xalqimiz varofonligini yanada yuksaltirishdir- T.: O‘zbekiston, 2009. 50 b.

<sup>3</sup> Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish va xalqimiz varofonligini oshirishga xizmat qiladi // Marifat 2011 yil 22 yanvar, 2 b.

Olib borilayotgan tahlillarimiz ko'rsatadiki, mintaqa qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishda bir qatorda muammolar kuzatilib, bu muammolar tarkibiga moliyaviy muammolar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Chunki, qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydonlarining sho'rlanishi darajalarining yildan yilga oshishi yoxud ayni didikatsiya davrida ko'rsatilayotgan suv tanqisligining mavjudligi kabi muammolarni tahlil qilganimizda ularning yechimini ta'minlash, aynan moliyaviy masalalariga bog'liqligi aniqlandi, xususan "Faqat 2010 yilning o'zida yerlarning miorativ holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun 150 mrd so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi va bu 724 kilometrlik kolektor-drinaj tarmoqlari 208 ta miorativ quduqlarni barpo etish rekonturuxsiya qilish, qariyb 14 mng klometr drinaj tizimini ta'minlash qayta tiklash va 350 ta zamonaviy miliaratsiya texnikasini xarid qilish imkonini beradi"<sup>4</sup>. Shuningdek qishloq xo'jaligida foydalanayotgan suv manbalarining qo'shni davlatlar chegarasidan o'tib kelishi mamlakat miqyosida suvga bog'liq xarajatlarning yildan yilga oshishiga olib kelmoqda.

Bunday holatlar mamlakatimiz iqtisodiyotimiz uchun strategik ahamiyatga molik bo'lgan mahsulot yetishtiruvchi sub'ektlarning davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni taqazo etadi. Aynan moliyaviy sarflarning samaradorligini aniqlashda qishloq xo'jalikining mintaqaviy xususiyatlarini aniqlash, va undagi moliyaviy muammolarni tadqiq etish shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. shu nuqtai nazardan ham mazkur bitiruv malakaviy ishi uchun "Mintaqa qishloq xo'jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolari" (Qashqadaryo viloyati misolida) mavzusi tanlab olindi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi mamlakatda inqirozga qarshi choralar dasturining so'zsiz ijrosini ta'minlashda mintaqa qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi moliyaviy muammolarni tadqiq etish va ularning yechimlari bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqarishdan iborat.

Tanlangan mavzuning keng qamrovli ekanligini inobatga olgan holda maszkur bitiruv malakaviy ishida quyidagi asosiy vazifalarni hal etish belgilab olindi:

- Respublikada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlarini va undagi moliyaviy muammolarni nazariy va ilmiy jihatdan tadqiq etish;
- Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning tarkibi va yo'nalishlarini tahlil qilish;
- Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolarini aniqlash va ularni tizimlashtirish;
- Viloyat qishloq xo'jaligida moliyaviy masalalarda ta'ir etuvchi omillarni tashkil qilish va natijalari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;
- Viloyat qishloq xo'jaligi tarmog'iga xizmat ko'rsatuvchi moliyaviy muassasalarning sifat ko'rsatkichlari reytingini aniqlash;

---

<sup>4</sup> Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yoksaltirish va xalqimiz varovonligini oshirishga xizmat qiladi. // Ma'rifat 2011 yil 22 yanvar 2 b.

- Mintaqa qishloq xo'jaligini rivojlantirishda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish yo'llari yuzasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning o'rganilganligi. Bitiruv malakaviy ishi uchun tanlangan mavzuning ba'zi jihatlari bo'yicha respublikamizning bir qator omillari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar, xususan, boshqalarning ilmiy ishlarida yaratgan darslik va o'quv qo'llanmalarda qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari va unda moliyaviy masalalarning ba'zi jihatlari tadqiq etilgan. Biroq tadqiqotlarimiz ko'rsatadiki "mintaqa qishloq xo'jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolari" mavzusi mamlakatimizda modernizatsiyalash va inqirozga qarshi choralar dasturining ijrosini ta'minlash jarayonlarini olgan holda aynan Qashqadaryo viloyati misolida tadqiq etilmagan ushbu holat ham mavzuning dolzarbligini yanada asoslaydi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:

- Respublikada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlarini va undagi moliyaviy munosabatlarni nazariy va ilmiy jihatdan tadqiq etilganligi;
- Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning tarkibi va yo'nalishlarining tahlil qilinganligi;
- Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolarining aniqlanganligi va ularni tizimlashtirilganligi;
- Viloyat qishloq xo'jaligida moliyaviy masalalariga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishganligi va natijalari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilganligi;
- Viloyat qishloq xo'jaligi tarmog'iga xizmat ko'rsatuvchi moliyaviy muassasalarning sifat ko'rsatkichlari reytingini aniqlanganligi;
- Mintaqa qishloq xo'jaligini rivojlantirishda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish yo'llari yuzasidan taklif va tavsiyalarning ishlab chiqilganligi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishda bildirilgan xulosa va takliflarni Qashqadaryo viloyati moliya boshqarmasi hamda OATB "Agrobank" Qashqadaryo viloyat boshqarmasi tomonidan inobatga olinmaganligi mazkur ishning amaliy ahamiyatini asoslaydi.

Bitiruv malakaviy ishining uslubiy asosi, bizni o'rab turgan odamni dialektik nuqtai nazaridan bilishga asoslangan uslubiy tamoyillar, respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan bozor iqtisodiyoti bo'yicha ilgari surilgan ta'limotlar, shuningdek qishloq xo'jaligining isloh etish borasida Prezidentimiz I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan yo'nalishlar, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va qishloq xo'jaligi sub'ektlarining davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashga tegishli huquqiy-meyoriy asoslari bitiruv mahalliy ishining uslubiy asosi bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining hajmi va tarkibi. Bitiruv malakaviy ishini kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalangan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 108 betni tashkil etadi. Shuningdek ishda 8 ta rasm va 4 ta jadval aks etirilgan.

## **I-bob. Respublika iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlari va undagi moliyaviy muammolar tavsifi.**

### **1.1. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning mintaqaviy xususiyatlari.**

Respublikamiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash jarayonlarida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ahamiyati katta. Chunki, qishloq xo‘jaligining asosiy vazifasi ishlab chiqarishni barqaror o‘stirish, axolini oziq-ovqat maxsulotlariga, sanoatni xom ashyoga bo‘lgan ehtiyojini to‘la -to‘kis qondirishdan iborat. Bunga yerlash uchun soxaga taaluqli mavjud barcha imkoniyatlardan to‘liq foydalanish maqsadga muvofiqdir, biroq tadqiqotlar kursatadiki, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mehnatni tashkil yetish va ishlab chiqarishni yulga quyish iqtisodiyotining boshqa tarmoqlaridan tubdan farq qiladi.

Mazkur farqlar tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, tarmoqda ishlab chiqarishning nafaqat inson faoliyatiga balki tabiat xodisalariga ham bog‘liqligi, ishlab chiqarishning mavsumiy harakterga egaligi, tarmoqga sarflanadigan xarajatlarning uch yil davomida amalga oshirilishi va daromadning faqat yilda bir marta olinishi asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yerning tabiiy resurs ekanligi kabi xususiyatlar qishloq xo‘jaligiga mos jihatlardir. Tahlillar ko‘rsatadiki, tarmoning yana bir xususiyati yerning joylashgan o‘rniga ko‘ra respublikamizning turli mintaqalarida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning turli mintaqaligidadir. Zero, janubiy mintaqada joylashgan Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos mintaqaviy xususiyatlari respublikamizning boshqa viloyatlarida ko‘rsatilmaydi va ularni tadqiq etish shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblandi.

Chunki, viloyat iqtisodiyotini yuksaltirish va aholi turmush darajasini oshirishda qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarishining ahamiyati katta. Bugungi kunda viloyat aholisining 60 foizdan ko‘prog‘i qishloq joylarida istiqomat qilmoqda va ularning asosiy daromad manbai aynan shu tarmoq hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Masalan, viloyatning birgina kitob tumanida 2010 yil 1 yanvar holatiga jami 7549 ta xo‘jalik yurituvchi subektlar ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ularning 86,2 foizi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hisobiga to‘g‘ri keladi.

Ushbu holat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo‘lmish yerning cheklangan tabiiy resurs ekanligini inobatga olgan holda mehnatni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqaradi, hamda mehnatni tashkil etishning turli shakllaridan foydalanishni taqazo etadi.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatadiki, viloyat qishloq xo‘jaligi taraqqiyotida mehnatni tashkil etishning bir necha shakllaridan foydalanilgan. Misol uchun rejali iqtisodiyotda mehnatni tashkil etishning kalxoz va sovxoz shakllaridan keng foydalanilgan bo‘lib, ularda asosiy ustuvorlik iqtisodiy samaradorlik nuqtai-nazaridan yondashuvlarga emas, balki ijtimoiy-siyosiy omillarga qaratilgan. Xususan aholi bandligining yuqori darajasini ta‘minlashga intilish sohada ortiqcha mehnat resurslarini to‘planishiga olib kelgan. Natijada qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida band bo‘lgan aholi qatlamining ham ta‘minlanganlik darajasi oshib borgan va bu holat mulkiy munosabatlarning, xususan yerlardan foydalanishdagi

xo'jasizlik holatlarini keltirib chiqarishi oqibatida bevosita yerlarning unumdorlik darajasini pasayishiga, sho'rlanish darajasining oshishiga, hosildorlikning tushib ketishiga sabab bo'lgan. Shu sababli mustaqillik yillarida viloyat qishloq xujaligining rivojlanishida tub burilishlar qilindi.

Xususan axolining oziq ovqat – bilan uzliksiz taminlashda va qishloq xujaligining rivojlantirishda barqarorlikka erishish uchun mehnatni tashkil etishning fermer va dehqon xo'jaliklaridan foydalanish yo'lga qo'yildi.

Ma'lumki, fermer xo'jalik avvalo yerga egalik qilish, yerdan foydalanishning zamonaviy usuli bo'lib, qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning yangicha amaliy shakli hisoblanadi. Qishloq xo'jaligidagi mehnatni tashkil etishning bu shakli natijasida ijobiy ko'rsatkichlarga erishilmoqda. Masalan, birgina 2010 yil yakuniga ko'ra viloyatda 7168 ta fermer xo'jaligi tashkil etilgan bo'lib, ularga jami 772,099 ming gektar yer maydoni ajratib berilgan. Fermer xo'jaliklarining 5305 tasi paxtachilik va g'allachilikka, 428 tasi chorvachilikka, 1393 tasi bog' va sabzavotchilikka ixtisoslashgan. Qashqadaryo viloyati respublika iqtisodiyotida nafaqat gaz va neft mahsulotlari ishlab chiqarish balki qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bo'yicha ham o'z salohiyati va o'rniga ega. 2010 yil yakunlariga ko'ra viloyatda jami 424,0 ming tonna paxta 830,0 ming tonna g'alla yetishtirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar respublikada yetishtirilgan paxtaning 12,3 foizini, g'allaning 11,4 foizini tashkil etadi. Biroq tahlillar ko'rsatadiki viloyat qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish bo'yicha mavjud imkonitlarini aniqlash va amaliyotga tadbiiq etish davr talabi. Bunda avvalo soxada amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalarini tadbiiq etish dolzarb masala hisoblani.

## **1.2. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'llari.**


XX-asrning 90 yillarida kelib aholi turmush darajasini oshirish vazifasi bevosita qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, qishloqda ishlab chiqarish munosabatlarni takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqarishning bozor tamoyillariga mos keladigan tashkiliy turilmasini shakllantirish masalalarini dolzarbligini kun tarkibiga qo'ydi. Kolg'oz va salxoz kabi jamoa xo'jaliklari o'rniga tashkil etilgan shirkat xo'jaliklarining aksariyati o'z izdoshlarining bozor munosabatlariga zid ananalarini davom etiradi va natijada yerdan samarasiz foydalanish tendiyetsiyasi saqlanib qoladi. Anashunda shirkatlarning istiqbolsiz turilma ekanligi yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Bu ularning qarzdorligi va sarf-xarajatlarining oshishi bilan ifodalanadi. Shu kabi jiddiy sabablar yoyerdan yangicha usulda, yangi turilmalar asosida foydalanish zaruratini tug'diradi. Tashkil etadigan yangi tuzilmalar asosida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni ko'paytirishda, dexqonchilikdan ko'riladigan manfaatlikni xarajatlarni kamaytirish va xosildorlikni oshirish hisobiga yuksaltirish hamda asosan qishloqlar aholisi uchun barqaror daromad manbini shakllantirishga erish lozim edi. Bunda qishloq xo'jalik maxsulotlarni ishlab chiqaruvchilarning mustaqilligini kengaytstirish hamda ularning ishonchli huquqiy muxofazasini ta'minlash uchun xo'jalikda mulkchilik shakllarini o'zgartirish va ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish eng muhim ustuvor masala qilib belgilanadi.

Anashunday vaziyatda yerlarni uzoq muddatli ijaraga kerish, kutilgan natijalarga olib kelish nazariy jihatdan isbotlandi va shu uslub amalga qo'llanib, dehqon va fermer xo'jaliklari yuzasiga keladi.

Ma'lumki qishloq xo'jaligida dehqon va fermer xo'jaliklarini tashkil etilishi qishloq xo'jaligida tadbirkorlik va xususiy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali aholi turmush darajasini oshirish omili bo'lib xizmat qiladi. Mehnatni tashkil etishning mazkur shakllari asosida viloyatda aholining iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatdan samarali bandligini ta'minlash imkoniyati paydo bo'ldi. Dehqon xo'jaliglarining o'z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishning qonuniy jihatdan mumkin emasligi va iqtisodiy samarasizligi qishloqlarda yuraka kelayotgan ortiqcha ishchi kuchini iqtisodiy nuqtai nazardan bandligini ta'minlash imkonini beradi. Mehnat tashkil etishning dehqon va fermer xo'jaliklari shakli ishlab chiqarishini boshqarish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni obyektiv zaruratga aylantirdi. Natijada qishloq xo'jaligining zamonaviylashtirish dehqon va fermer xo'jaliklariga bozor tamoyillari va mehanizmlari asosida xizmat ko'rsatishi infaturilma shakllanmoqda.

Viloyat qishloq xo'jaligida mehnatni dehqon va fermer xo'jaligi shakllarida tashkil etilishi aholi turmush darajasini oshirishga ijobiy ta'ir ko'rsatmoqda. Xususan mulk, mablag', texnika xususiy mulkka aylanadi va tarmoqdagi ortiqcha ishchi kuchi, ya'ni bog'imanda ishchi, bekor yurib maosh oluvchilar mutloqo yoqoldi. Dehqon va fermer xo'jaliklari o'zlari mustaqil ish tashkil etmoqdalar va mulkdor sifatida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda agrotexnik tadbirlari o'z vaqtida sifatli amlga oshirish ustida ish olib bormoqdalar. Shu nuqtai

nazardan ham tadqiqotlarimiz natijasida respublikamiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarni shartli ravishda uch bosqichga ajratish va quyidagicha tizimlashtirish mumkin (1.2.1-rasm)



1.21-rasm. Mustaqillik yillarida respublika qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlarning tizimlashtirilgan bosqichlari.

**Birinchi bosqich:** 1990 yildan 1998 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi: Bu bosqichda qishloq xo'jaligini qayta tashkil etish va fermer xo'jaliklarini tashkil qilish tadbirlari boshlandi: Ushbu bosqichning yana bir xususiyatli jihati Xitoy<sup>5</sup> tajribasiga binoat, jamoa xo'jaliklarini takomillashtirish bo'yicha birigada va zvenolar kengroq eokinlik berishga qaratilgan turli yangiliklar sinob ko'rildi.

**Ikkinchi bosqich:** 1998 yildan 2003 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda qishloq xo'jaligini qayta tashkil etish va fermer xo'jaliklarining kam rentabelli va zarar bilan ishlovchi qishloq xo'jaligi shirkatlari fermer xo'jaliklariga aylantirildi.

**Uchinchi bosqich:** 2003 yildan to hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda yangidan tashkil etilgan fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishi uchun iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy sharoitlar yaratilmoqda. Muxtaram prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "O'tgan davr mobaynida ortirilgan tajribamiz fermerlikni yanada rivojlantirish uchun bir qator juda muhim muammolarni, xususan, fermer xo'jaliklarning barqarorligi, eng muhimi, ularning samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalarni hal qilishni qat'iy talab etmoqda. Faoliyat yuritayotgan aksariyat fermer xo'jaliklarning ish tajribasi shundan dalolat beradiki,

<sup>5</sup> BMT TD "Istiqbol" loyihasining Amaliy tadqiqotlar markazi tomonidan tayyorlangan materiallar, iqtisodiy tadqiqotlar markazi. 2005 8-bet.

fermer xo‘jaliklarini shakllantirishning dastlabkibosqichida ularga ajratib berilgan yer maydonlarning kamligi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o‘shishiga ko‘p jihatdan to‘sqinlik qilmoqda. Imkoniyati, kuch-quvvati kam bo‘lgan fermer xo‘jaliklari o‘zini zarur texnika, aylanma mablag‘ bilan ta‘minlash, kredit qobiliyatiga ega bo‘lish, eng asosiy o‘z xarajatlarini qoplash va foyda ko‘rib ishlash, daromadni oshirishning ishonchli asosiga aylanmasligini bugun hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda”<sup>6</sup>.

Shu nuqtai nazardan ham bugungi kunda fermer xo‘jaliklari yer maydonlarini optimallashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda, chunki, kichik hajmdagi yer maydonlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini kamaytiridi va ba‘zi muammolarini keltirib chiqardi, xususan:

- yirik hajmdagi yer maydonlariga mo‘ljallangan texnika vositalaridan foydalanishdagi muammolar;
- doimiy ishchilardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- ba‘zi bir resers va xizmat turidan qonuniy va to‘liq asosda foydalanishdan manfaatdor bo‘lmaslik;
- to‘laqonli faoliyat yuritishda qiziqishning sustligi, tezroq foyda olishga intilishga moyilikning paydo bo‘lishi va boshqalar.

Tadqiqotlar ko‘rsatkichi, kichik hajmdagi yerga ega bo‘lgan xo‘jaliklarda moliyaviy muammolar ham kuzatiladi, ya‘ni tijorat banklaridan kredit yoki asosiy vositalarni lizingga berish uchun xo‘jalik yer maydoni kamida 40-50 gektordan kichik bo‘lmagandagina fermer xo‘jaliklari o‘z faoliyat olingan sof daromad hisobiga lizing to‘lovlarini to‘lashda qiyinchiliklarga duch kelmaydilar.

---

<sup>6</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T.: O‘zbekiston, 2009 222-23 betlar.

### **1.3. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolari.**

Bugungi kunda respublikamiz qishloq xo‘jaligi sohasidagi mavjud rivojlanish muammolari tadqiq etilganda ularning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan omillarni ikki guruhga o‘rnatish mumkin. Ulardan bir guruhi uzoq muddatli inertsiya xarakterlarga ega bo‘lib, ayni vegetatsiya davrida suv ta‘minotining kamayganligi, yerlarning tabiiy xosildorligining pasayishi, asosiy ishlab chiqarish vositalarining oshirish darajasining yuqoriligi kabi sabablar orqali yuzaga kelsa, qolgan omillar qishloq xo‘jaligi sohadagi moliyaviy muammolar natijasida yuzaga kelmoqda.

Birinchi guruhdagi omillarni yuzaga kelish, bevosita fermerlarga yerga nisbatan xususiy mulkchilik xissini shakllanishi bilan bog‘liq. Moliyaviy muammolar natijasida yuzaga kelgan sabablar fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma faoliyatining qoniqarli emasligi natijasida yuz bermoqda. Fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini tartibga soluvchi meyoriy va huquqiy hujjatlar to‘liq ishlab chiqilmaganligi, infratuzilma shahobchalarini tashkil etishni hududiy jihatdan optimal joylashtirilmaganligi, mini banklar o‘z funksiyalarini talab darajasida bajarish uchun yeratli resurs va salohiyatga ega emasligi, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari boshqaruvi jamoat tashkiloti tamoyillariga javob bermagani, tuzilgan shartnomalarning bir tomonlamaligi, ya‘ni asosan fermer xo‘jaliklari majburiyatlari aks etganligi hamda sifatsiz xizmatlar bo‘lsada, to‘lovlar fermerning bankdagi hisob raqamidan majburan undirib olinishi amaliyotining mavjudligi.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida 61 ta o‘z filialiga ega bo‘lgan 14 ta tijorat banki faoliyat ko‘rsatayapti va ular statistik ma‘lumotlarga ko‘ra 70000 dan ortiq xo‘jalik sub‘ektlariga xizmat ko‘rsatmoqda.

Biroq taxlillarimiz ko‘rsatadiki, joylarda fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi moliyaviy muassasalar faoliyatida o‘ziga xos moliyaviy muammolar ko‘rsatildi. Xususan, qishloq joylarida kichik biznes sub‘ektlariga ayniqsa fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatish maqsadida tuman va shahar markazidan olisda tashkil etilgan 207 ta mini-banklar tashkil etilgan bo‘lib, ular infratuzilmaviy muammolar sababli to‘laqonli bank operatsiyalarini amalga oshira olmayaptilar. Natijada fermer xo‘jaliklari sub‘ektlari asosan shahar va tuman markazlaridagi banklar xizmatidan foydalanishga majbur bo‘lishmoqda. Bu holat bir tomondan shahar va tuman markazidagi banklarning xaddan ziyod zo‘riqish bilan ishlashidan tashqari, fermerlarni katta vaqt yoqotishlariga ham olib kelmoqda.

Tahlilimiz ko‘rsatadiki, yuqoridagi holatlar bilan birga mini-banklarning viloyat hududida nomutanosib joylashganligi ham muayyan moliyaviy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, Koson tumanida 21 ta mini-bank bo‘lgani holda, Dehqonobod tumanida bor yog‘i 2 ta mini-bank xizmat ko‘rsatmoqda. Yirik bank bo‘limlari asosan rivojlangan tumanlarda mavjud bo‘lib, rivojlanish darajasi pastroq bo‘lgan tumanlarning deyarli barchasida bu banklarning bo‘limlari mavjud emas. Bu esa ushbu tumanlarga ko‘rsatiladigan bank va nobank moliya institutlari xizmatlarining chegaralanishiga olib kelmoqda.

Joylarda bank infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi viloyat markazida joylashgan banklarning zijligi va viloyatning boshqa hududlarda esa ularning nisbatan kamligi hamda bank ko'rsatiladigan xizmatlarning deyarli barchasi joylarda bir hilligi sababli ular asosida raqobat yo'q.

Ushbu holatlar viloyat qishloq xo'jaligining rivojlanishiga ma'lum darajada o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari moliyaviy muammolar xizmatidan foydalanuvchi fermer xo'jaliklari sub'ektlarining ham moliyaviy masalalar bo'yicha muammolari borligi kuzatildi. YA'ni aksariyat fermer xo'jaliklarida paxta va g'alla hosili bo'yicha tuzilgan davlat kontraktatsiyasi shartnomalarini bajaraolmasliklari oqibatida moliyaviy yakun salbiy natijaga olib kelmoqda. Tahlillarimiz ko'rsatadiki, bunda mahsulot tannarxining rejaga nisbatan oshib ketishi asosiy omil hisoblanmoqda. Ushbu holatning obyektiv va sub'ektiv sabablari mavjud. Obyektiv sabablarga inqirozga qarshi maralar dasturiga ko'ra qat'iy tejamkorlik tamoyillaridan kelib chiqib, moliyaviy xarajatlar samaradorligini oshirishda, davlat buyurtmalari bo'yicha narxlarning ko'tarilish darajasining sekinligi, hamda viloyatda yaqin 3-4 yildan buyon kuzatilayotgan suv tanqizligi muammolarini ko'rsatish mumkin. Sub'ektiv omillar tarkibiga ba'zi fermer xo'jaliklari rahbarlarining masuliyatsizligi, iqtisodiy va huquqiy bilimlarga ega emasligi natijasida yuzaga kelayotgan muammolarni e'tirof etish mumkin. Aynan sub'ektiv omillar natijasida yuz berayotgan muammolar tarkibida moliyaviy muammolar ustuvorlik qiladi. Xususan, qo'shimcha moliyaviy mablag'larga ehtiyoji bor ba'zi fermerlar viloyat fermer xo'jaliklari uyushmasiga a'zo bo'lmaganliklari sababli tijorat kreditlarini olishga majbur bo'lganlar. Bunday muammolar yechimini ta'minlovchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun moliyaviy muammolar tarkibi va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha aniq va manzilli tahlillar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

## **I-bob bo'yicha xulosa.**

Respublika iqtisodiyotida qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishini tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlarni va undagi moliyaviy muammolarni tadqiq etish obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Tadqiqotlar va tahlillar ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi tarmog'ida mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan tubdan farq qiladi. Qishloq xo'jaligining asosiy vositasi hisoblangan yerning joylangan o'rniga ko'ra respublikamizning turli mintaqalarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Zero, janubiy mintaqada joylashgan Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligining o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlari respublikamizning boshqa viloyatlarida kuzatilmaydi va ularni tadqiq etish shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki, viloyat iqtisodiyotini yuksaltirish va aholi turmush xarajatini oshirishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarilishining ahamiyati katta. Bugungi kunda viloyat aholisining 60 foizdan ko'prog'i qishloq joylarida istiqomat qilmoqda va ularning asosiy daromad manbai aynan shu tarmoq hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samaradorligini ta'minlamoqda. Amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasida qishloq xo'jaligida dehqon va fermer xo'jaliklarini tashkil etilishi qishloq xo'jaligida tadbirkorlik xususiy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali aholi turmush darajasini oshirish omili bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq tahlillar ko'rsatadiki, qishloq xo'jalini yanada rivojlantirishda muayyan moliyaviy muammolar kuzatilmoqda. Moliyaviy muammolar fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma faoliyatining qoniqarli emasligi natijasida yuz bermoqda. Fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini tartibga soluvchi meyoriy va huquqiy hujjatlar to'liq ishlab chiqilmaganligi, infratuzilma shahobchalarini tashkil etishni hududiy jihatdan optimal joylashtirilmaganligi, mini banklar o'z funksiyalarini talab darajasida bajarish uchun yetarli resurs va salohiyatga ega emasligi, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari boshqaruvi jamoat tashkiloti tamoyillariga javob bermagani, tuzilgan shartnomalarning bir tamonlamaganligi, ya'ni asosan fermer xo'jaliklari majburiyatlari aks etganligi hamda sifatsiz xazmatlar bo'lsada to'lovlar fermerning bankdagi hisob raqamidan majburan undirib olinishi amaliyotning mavjudligidir.

## **II-bob. Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolari va unga ta‘sir etuvchi omillar tahlili**

### **2.1. Moliyaviy muammolar tarkibi va uni keltirib chiqaruvchi omillar**

Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ahamiyati katta. Chunki, qishloq xo‘jaligi har doim ham mamlakatni moddiy boyliklar bilan ta‘minlovchi buyuk zamin, mehnat maydoni sifatida o‘zini namayon qilgan. Shu sababli ham respublikamizda qishloq xo‘jaligi tubdan qayta tashkil etildi. Birgina Qashqadaryo viloyatida bugungi kunda, “8599 ta qishloq xo‘jaligining turli sohalariga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatmoqda (respublikada-80628 ta). Ularning 6452 tasi paxta va g‘alla yetishtirishga, 1550 tasi bog‘dorchilik va sabzavotchilikka, 86 tasi boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tayyorlashga ixtisoslashgan. Keymngi yillarda asalarichilik va baliqchilikka ixtisoslashgan fermerlar soni ko‘paymoqda”<sup>7</sup>.


Fermerlar tomonidan yetishtirilayotgan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan paxta va g‘alla hosilining 50 foiziga nisbatan davlat buyurtmasi shakllantirilgan bo‘lib, unga sarflanadigan xarajatlar davlat mablag‘i hisobiga moliyalanmoqda. Bunda viloyat Moliya boshqarmasi davlat xaridi bo‘yicha sarflanadigan mablag‘larning smetasi turadi va taqsimlaydi. Viloyat Moliya boshqarmasi 1997 yilda qayta tashkil etilgan bo‘lib, Qashqadaryo viloyat mahalliy budjetning boshqaruv organi hisoblanadi. Boshqarma viloyat mahalliy budjetini shakllantirish, uni taqsimlash jarayonlari va davlat budjetiga mablag‘lar yig‘ib berish va undan ajraladigan mablag‘larni taqsimlash, undan foydalanish jarayonlarini nazorat qilish bilan shug‘ullanadi. Qashqadaryo viloyat mahalliy budjet, 14 ta tuman budjeti va Qarshi shahar budjetidan tashkil topgan.

Viloyat moliya boshqarmasi bajarayotgan funksiyalari tarkibida viloyat fermer xo‘jaliklarini Moliya vazirligi huzuridagi jamg‘arma hisobidan davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarilishini imtiyozli kreditlar orqali moliyalashni ham amalga oshiradi. Biz quyidagi 2.1.1-rasmda davlat ehtiylari uchun harid qilinadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarilishini imtiyozli kreditlar orqali moliyalash tarkibining sxemasini keltiramiz.

---


<sup>7</sup> Erkayev A. Sobit qadam karvon. T.: Ma‘naviyat, 2010. 21-bet.

**Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni imtiyozli kreditlar orqali moliyalash tartibi**



2.1.1-rasm. Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarilishini imtiyozli kreditlar orqali moliyalash tartibining sxemasi

**Paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari bilan yakuniy hisob-kitoblar amalga oshirish SXUFQSH  
(2007 yildan joriy yetilgan tartib)**



Paxta yetishtirish Fermer xo'jaliklari bilan hisob-kitoblar amalga oshirishning 2007 yilda joriy etilgan tartibining sxemasi.

Ma'lumki 2007 yil 14 aprelda Adliya vazirligida 1675raqam bilan ro'yxatdan o'tgan "Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi" to'g'risidagi Nizomga asosan: Kreditlar davlat ehtiyojlariga sotiladigan mahsulot qiymatining 60 foizigacha miqdorlarida yillik 3foizlik ustama haq to'lash sharti bilan (2 foizli qismi bank marjasi) g'alla uchun 12 oygacha, paxta xom ashyosi uchun 18 oygacha bo'lgan muddatga beriladi;

Bunda, kreditlar agrotexnika tadbirlar muddatidan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda ajraladi:

a) paxta xom ashyosi uchun yilning 1 yanvariga qadar paxta xom ashyosi qiymatining 10 foizgacha, apreliga qadar 25 foizgacha, 1 sentabrga qadar 60 foizgacha;

b) g'alla uchun 1 yanvarga qadar g'alla qiymatining 35 foizigacha, 1 aprelga qadar 50 foizgacha 1 iyunga qadar 60 foizgacha;

c) kreditlar ish haqi va unga tegishli ajratmalar to'lash MTP lar (shu jumladan, muqobil MTP lar), SFI lari va qishloq xo'jaligi texnikasi mavjud bo'lgan boshqa xo'jalik sub'ektlarining xizmatlari va olingan urug'lik uchun to'lovlarni amalga oshirish uchun, lingga berilgan texnika vositalarining linizng va sug'urta to'lovlari, foydalanilgan elektr energiyasi, yagona yer solig'i to'lovlariga, minimal o'g'it va o'simliklarning, biologik va kimyoviy himoya qilish vositalarini, xo'jalik ixtiyoridagi texnikalarga ehtiyot qismlar, poletilin plyankasi xarid qilish uchun ajratiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari tayyorlov korxonalari bilan kontraktatsiya shartnomalari tuzganlaridan keyin kredit olish uchun ularning asosiy talab qilib olinguncha dipozit hisob varag'iga xizmat ko'rsatayotgan tijoart bankiga quyidagi hujjatlarni tadqim etadi:


- ariza;
- Kontraktatsiya shartnomasining nusxasi;
- Kreditga bo'lgan talabni aniqlash uchun tayyorlangan biznes reja;
- Dipitor-kreditor qarzarlar to'g'risida ma'lumotnoma.

Ushbu talablar bajarilgandan so'ng fermer tijorat bankining imtiyozli fikrini olishi mumkin.

Ushub ajratiladigan imtiyozli kreditlar maqsadli bo'lib, ularning ishlatilish tartibini tizimlashtirilgan holda 2.1.2-rasmda keltiramiz.

## Fermer xo'jaliklariga ajratilgan imtiyozli kreditlarni ishlash tartibi

1999-2006 yillarda



2.1.2-rasm. Fermer xo'jaliklariga ajratiladigan imtiyozli kreditlarni ishlatilishining tizimlashtirilgan tartibi

Rasmdan ko‘rinib turibdiki 1999-2006 yillarda maqsadli transh ko‘rinishida ajratilgan mablag‘lar harakatida ko‘ra, har bir hisob raqamga alohida mablag‘ yo‘naltirilgan bo‘lsa 2007 yildan boshlab imtiyozli kreditlash jarayoniga ko‘ra, “Qishloqxo‘jalikimyo” XAJ tumani filiali 2 ta hisobraqam bo‘yicha, “Unitarneft bazalari” 2 ta hisobraqam bo‘yicha, “mashina traktor parklari” 2 ta hisob raqam bo‘yicha kreditlar harakati tashkil etiladi.

2.1.3-rasmda paxta yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari bilan yakuniy hisob-kitoblar amalga oshirishning 2007 yilda joriy etilgan tartibining sxemasi keltirilgan.

Respublikamiz miqyosida qishloq xo‘jaligini moliyalashda davlat ishtirokini ta‘minlash obyektiv zarurat hisoblanadi. chunki, respublikamizda jami foydalaniladigan yerlar maydoni 44,410 ming gektarni tashkil etib, uning bor yog‘i 9,7 foizni ya‘ni 4,3 ming gektarini sug‘oriladigan yerlar tashkil etiladi biroq tahlillar ko‘rsatadiki, respublikamizda holati yomonlashgan yerlar jami 413712 gektarni tashkil qiladi va uning qaryib 9,3 foizini Qashqadaryo viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi (2.1.1-jadval).

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati to‘g‘risida ma’lumot**

2.1.1-jadval

№	Hududlar soni	Holati yomon yerlar	Shundan					Foydalanishning ahvoli	
			Yer osti sizot suvlari ko'tarilishi natijasida meliorativ holati yomonlashgan yerlar	Shurlanish darajasi yuqori yerlar, nkkplam pn shutschangan yerlar	O'ta toshloq va GIPS qatlami mavjud yerlar	Suv ta'minoti yetishmaydigan va sug'orish inshootlari Yaroqsiz holga kelgan yerlar	Qishloq xo'jalik ekinlari ekilmaslik oqibatida yaroqsiz holatga tushgan yerlar	Qishloq xo'jalik ekinlar ekilib kelinayotgan yerlar	Surunkali ravishda 2000 yildan buyon foydalanilmayotgan yerlar
1	Qaraqalpog‘iston respublikasi	134871	2332	48265		54990	8584	26904	107967
2	Andijon	18572	11854	2020	131	3567		18559	13
3	Buxoro	19927	4417	3840	4244	7426		18760	1167
4	Jizzax	37446	14851	4200	41	18354		32250	5196
5	Qashqadaryo	38706	6818	8138	234	23516			38706
6	Navoiy	10494	1596	872	1961	5725	385	5485	5009
7	Namangan	16804	2550	5016	2241	6967	30	13903	2901
8	Samarqand	20593	6086	2579	1795	10133		17459	3134
9	Surxondaryo	19594	7812	1990	1289	8138	365	11659	7935
10	Sirdaryo	16703	1671	9765		5267		16249	454
11	Toshkent	14334	4130	1142	1106	7934	22	11497	2837
12	Farg‘ona	38525	8207	16317	956	12891	154	37659	866
13	Xorazm	27143	8551	9459	188	8307	638	22124	5019
	<b>Jami:</b>	<b>413712</b>	<b>101575</b>	<b>113603</b>	<b>15141</b>	<b>173215</b>	<b>10178</b>	<b>232508</b>	<b>181204</b>

Ushbu holati yomonlashgan yerlarning 1015575 gektorini yer osti suvlari ko'tarilishi natijasida meliorativ holati yomonlashgan yerlar tashkil etgan bo'lsa, uning 6819 gektori yoki 6,7 foizini Qashqadaryo viloyatiga tegishlidir. Shuningdek viloyatda sho'rlanish darajasi yuqori yerlar, ikkilamchi sho'rlangan yerlar 234 gektarni tashkil etgan. Shu sababli ham maxsus ishlab chiqilgan keng ko'lamli dasturni izchi amalga oshirish hisobidan yerlarning meliorativ holati muttasil yaxshilanmoqda. "Faqat 2010 yilning o'zida yerlarining meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun 150 mlrd so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi va bu 724 klometrlik kollektor drinaj tarmoqlari, 208 ta meliorativ quduqlarni band etish va rekonstruksiya qilish, qariyb 14 ming kilometrlik kollektor drinaj tizimini ta'minlash, qayta tiklash va 305 ta zamonaviy melioratsiya texnikasini xarid qilish imkonini beradi"<sup>8</sup>.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "...qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish, fermerlik holatini, qo'llab-quvvatlash moliyaviy bazasini mustahkamlash, ularga yanada keng yo'l ochib berish, bu borada yangi imtiyoz va imkoniyatlarni tug'dirish, qisqacha aytganda qishloqda paydo bo'layotgan mulkiy munosabatlarni, yangi o'rta sinf vakillari mulkdorlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlarning manfaatlarini himoyalash bugungi kunda eng katta ahamiyatga ega"<sup>9</sup>.

Bundan ko'rinadiki, shu kunning ustuvor vazifalaridan biri qishloq xo'jaligini rivojlantirishda moliyaviy muassasalarning rolini yanada oshirishdan iborat. Chunki fermer xo'jaliklari o'z faoliyatlarini tashkil etish va yuritish jarayonida ko'plab moliyaviy muassasalar xizmatidan foydalanadilar. Qishloq xo'jaligiga xususan, fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi moliyaviy muassasalarni shartli ravishda 2 guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

Tijorat banklari;

Respublikada tashkil etilgan jamg'armalar.

Xususan, respublikamizda tijorat banklari bilan birga bir qator jamg'armalar ham tashkil etilgan bo'lib, ular kam fermer xo'jaliklari faoliyatida uchraydigan moliyaviy muammolarni, xususan, mablag' yetishmasligini hal etishda o'z, xizmatlarini taklif etmoqdalar. Masalan, "Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi", mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligining "ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armasi va boshqalar"<sup>10</sup>.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib yil davomida mablag' sarflab boriladi va hosil faqat yilning muayyon davrida yoki yil yakunida yig'ishtirib olinadi. Bu holat

---

<sup>8</sup> Karimov I.A. barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. // Marifat, 2011 yil 22 yanvar, 2 bet.

<sup>9</sup> Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlantirishini ta'minlash bizning oliy maqsadimiz. Preziden I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 16 yiliga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // "Xalq so'zi", 2008 yil 6 dekabr 2-bet.

<sup>10</sup> Abdurashidov G. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda moliyaviy muassasalarining roli "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida qishloq aholisi farovonligini oshirishning strategiyasi va istiqbollari" mavzusida respublika ilmiy amaliy anjumani maruzalar to'plami. Qarshi 110 bet.

fermer xo'jaliklarining ayni vigitatsiya davrida mablag'larga nisbatan ehtiyojini oshib borishiga va tijorat banklarining yoki jamg'armalarning kreditlaridan foydalanishlariga olib keladi. Kreditlarning asosan 2 turi mavjud bo'lib tijorat kreditlari va imtiyozli kreditlari, va imtiyozli kreditlarga ajratish mumkin.

Ma'lumki, tijorat kreditlarining yillik foiz stavkalari nisbatan yuqori bo'ladi va agar juda zarurat bo'lmasi fermer xo'jaligi ulardan foydalanmagani maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki qishloq xo'jaligida bir yilda bir marta hosil olinadi va hol olingan kreditlarni ham bir marta aylanishiga deb keladi. Natijada nafaqat fermerlarning moliyaviy hudi, balki tijorat banklarining ham likvidlik holati, pasayadi va kredit zahirasi kamayishi kutariladi.

Jamg'armalar tomonidan beriladigan kreditlar esa, imtiyozli, ya'ni foiz stavkalari ham ancha past kredit hisoblanadi.

Masalan, dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faqat dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasiga a'zo bo'lgan dehqon yoki fermer xo'jaliklariga imtiyozli kredit berish bilan shug'ullanadi. Mazkur jamg'arma fermer xo'jaliklariga to'g'ridan to'g'ri emas, balki tijorat banklari orqali 3 yil muddatgacha bo'lgan muddatga kredit beradi. Kreditlarning yillik foiz stavkasi Markaziy bank har yilgi belgilaydigan qayta moliyalashtirish stavkasining birdan uch qismini tashkil etadi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki maxsus jamg'armalarning imtiyozli kreditlarini olish uchun ma'lum iqtisodiy bilimlar taqazo etiladi. Chunki, fermer xo'jaligi jamg'arma kredit liniyalari hisobiga kredit olish uchun o'zi mijoz bo'lgan bankga ariza taqdim etishi talab etiladi. Arizaga asosan barcha zaruriy hujjatlar taqdim etilgach e'tirozli jahatlar kursatilmasa tijorat banki markaziy mahkamasi jamg'armaga loyihani moliyalashtirish uchun kredit liniyasini ochish haqida buyurtma hatini yuboradi. Jamg'arma o'z navbatida taqdim etilgan buyurtmani belgilangan nizom asosida ko'rib chiqadi va bank bilan jamg'arma o'rtasidagi kredit shartnomasini imzolaydi. Shartnomaga asosan bankning maxsus hisobraqamiga mazkur loyihani moliyalashtirish uchun tegishli miqdordagi mablag' voiloyat banki orqali tuman bank filialiga ya'ni fermerning hisobraqamiga o'tkaziladi. Yuqoridagi jarayondan ko'rinadiki jamg'armalardan kredit olish bir qator ketma-ketlikni va ma'lum vaqtni talab etadi.

Olib borayotgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki aksariyat tashkil etilgan fermer xo'jaliklarining rahbarlari iqtisodiy bilimlarga ega emasliklari oqibatida jamg'armalardan imtiyozli kredit olish o'rniga, banklarning tijorat kreditlaridan olishga harakat qiladilar. Nitijada ba'zi kreditlarning qaytmasligi va muammoli kreditlarning vujudga kelishi kreditlanmoqda.

Fermer xo'jaliklari qarzdorliklarni qoplamasligining asosiy sabablariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- fermer xo'jaligi tomonidan sotib olingan texnika va mini texnologiyalar, qaromol va parrandalar, bino va inshootlarni belgilangan tartibda balansda aks etirilmaganligi;

- ajratilgan resurslarni asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga yo'naltirilmaganligi yoki meyorda nisbatan ortiqcha sarflanganligi. Joylarda hisob-

kitobni to'g'ri tashkil etilmaganligi va bu sohada malakali kadrlarning yetarli emasligi;

- fermer xo'jaliklari tomonidan mahsulot yetishtirish rejalarini surunkali bajarmaganligi natijasida yetarli daromadlar olinmaganligi;

- qarzlarni o'z vaqtida to'planmaslik natijasida ustama va jarimalar miqdorini ko'payib ketganligi;

- xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarda ayrim fermer xo'jaliklari bilan solishtirma dalolatnomalarining to'qligi hamda tijorat banklariga inkassa qo'yilmaganligi;

- yerdan oqilona foydalanilmaganligi;

- fermer xo'jaliklarining (shu jumladan oldingi yillarda tugatilgan fermer xo'jaliklaini) kreditlash qarzlarni bartaraf etish. Bugungi kunda viloyat mahalliy budjetdan ham viloyat qishloq xo'jaligini moliyalash uchun mablag'lar ajratishmoqda (2.1.2-jadval). Mazkur mablag'lar asosan veterinariya sohasiga hamda yerlarning zahini qochirish, drenaj va zovurlarni tozalash uchun yo'naltirilmoqda. Xususan mahalliy budjetdan 2010 yilda qishloq xo'jaligi tarmog'iga 2964,6 mln, so'mda mablag' ajratilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2008 yilga nisbatan +1030,9 mln so'mda, 2009 yilga nisbatan 812,4 mln so'mda oshgan. Bu holat ijobiy ko'rsatkich hisoblanadi.

**Qashqadaryo viloyati mahalliy budjetning so'ngi 3 yilda qishloq xo'jaligiga sarflangan xarajatlari dinamikasi tahlili (mln so'mda)**

2.1.2-jadval

№	Xarajatlar tuni	Summasi (mln so'mda)			O'zgarishi (+,-)	
		2008 yil	2009 yil	2010 yil	2008 yilga nisbatan	2009 yilga nisbatan
1	Jami xarajatlar	508413,9	564703,6	711579,1	+203165,2	+146875,5
Shundan						
1.1.	Qishloq xo'jaligi	1933,7	2152,2	2964,6	+1030,9	+812,4

## **2.2. Moliya muassasalarining xizmat turlari va ularning sifat ko'rsatkichlari reytingi**

Respublikamizda iqtisodiyotni yuksaltirish va modernizatsiyalash jarayoni moliyaviy institutlar faoliyatiga nisbatan ehtiyodni oshirmoqda.

Respublikamiz iqtisodiyotida asosiy moliyaviy institutlar bu tijorat banklaridir. Biroq tahlillarimizshuni ko'rsatadiki, aksariyat tijoart banklarining moliyaviy ahvoli kreditlashda tavakkal hafi darajasi past bo'lgan savdo sohasi va aylanma mablag'larni shakllantirishga qaratilgan. Bizga ma'lumki endigina shakllanayotgan kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini moliyalash ustuvor vosita hisoblanadi. Chunki, BMT taraqqiyot dasturi "istiqlol" loyihasi ma'lumotlariga ko'ra kichik biznesni tashqi moliyalashga bo'lgan ehtiyoji atigi 20-30 foizga fondirilgan holos.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va moliyaviy ishlab chiqarishni yuqori texnologiyalarasida tashkil eishda moliyaviy institutlar tomonidan moliyaviy ko'mak sifatida beriladigan kreditlar ajratish jarayonini ko'paytirish va qulaylashtirish maqsadiga muvofiqdir.

Respublikamizda Qashqadaryo viloyati mehnat resurslarining ko'pligi va mahalliy ishlab chiqarishning o'ziga xls xususiyatlariga ega. xususanY, viloyat aholisining aksariyat chismi qishloqlarda istiqomat qilayotganligi, hamda dehqon va fermer xo'jaligi bilan shug'ullanayotganligi joylarda kreditlash mexanizmlaridan foydalanishni taqazo etadi. Xususan, viloyat bo'yicha kichik biznes sub'ektlariga ayniqsa fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish maqsadida tuman va shahar markazidan olisda tashkil etilgan 207 ta minibanklar infratuzilmaviy muammolar sababli bank operatsiyalarini amalga oshira olmayotganligi tufayli tadbirkorlar asosan shahar va tuman markazlaridagi banklar hizmatidan foydalanishga majbur bo'lishmoqda.

Shu bilan birga mini banklarning viloyat hududida noteks joylashganligi hamda ular tomonidan amalga oshirilayotgan hizmat turlarining bir xilligi ham moliyaviy institutlarning o'ziga xos va mosi hisoblanadi. Masalan, Viloyat Iqtisodiyot bosh boshqarmasiga taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra koton tumanida o'rnatilayotgan davrda 21 ta minibank faoliyati qayd etilgan bo'lsa, suddi shu davrda dehqonobod tumanida bor yog'i 2 ta minibank kichik biznes sub'ektlariga hizmat ko'rsatgan.

Bank tizimida olib borilayotgan islohotlar joylarda jismoniy va yuridek shaxslarga sifatli va kafolatli bank hizmatlari ko'rsatilishini talab qiladi. Bunda asosiy e'tibor banklar o'rtasida tashkil etiladigan raqobat muhiti va bank infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan. Bugungi kunda banklar o'rtasida bozor talablari darajasidagi raqobat muhiti shakllanmayapti, shuningdek, taklif etilayotgan hizmatlar turi sifati deyarli bir xil, ayniqsa, banklar tomonidan ko'rsatilayotgan hizmatlar mahalliy xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlariga asoslanmagan. Masalan, mahalliy banklar kredit olish istagini bildirgan tadbirkorlardan maqsadli kredit mablag'laridan foydalanish uchun asoslab beriladigan biznes reja va kreditning qaytarilishini kafolatlovchi likvid garov talab etiladi. Odatda bu ikki talabni kichik xususiy korxonalar va

dehqon xo'jaliklari bajara olmaydi. Chunki xususiy tadbirkorlik dehqon va fermer xo'jaliklarning aksariyati moddiy jihatdan ham ta'minlangan, moliyaviy ahvoli post darajada, hamda likvid garov ta'minotiga ega emas. Shuningdek, tijorat banklarining mahalliy bo'limlarida qaror qabul qilish vakolatining chegaralanganligi sababli tadbirkorlar tomonidan taqdim etilayotgan biznes loyihalar nafaqat mahalliy bank bo'limlari balki markazdagi bosh ofis tomonidan ham ko'rib chiqilishi, kredit olish jarayonining uzayib ketishiga sabab bo'lmoqdi. Tijorat banklarida bunday muammolarning jismoniy va yuridek shaxslarning avvalo, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqorolarning banklarga nisbatan ishonchini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Bizning fikrimizcha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda, joylarda mikrocreditbank tizimidan mikromoliyaviy xizmatlarni tashkil etish va ularning xizmatlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadiga muvofiqdip. Bunda ayniqsa, "O'zaro tadbirkorlar rejasi"ni kafolat berish asosida mikrocreditlashni tashkil etish iqtisodiy va ijtimoiy samarani ta'minlaydi. Chunki, ushbu mehanizm joylarda nafaqat moliyaviy resurslarni tez va qulay usulda olish imkoini beradi. Balki, fuqorolar o'rtasida sherikchilik, iqtisodiy hamkorlik va moliyaviy muassasalar xizmatini yanada oshirish imkonini ta'minlaydi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2010 yilda iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi tarmog'iga kichik biznes sub'ektlarining ulushi 97,9 foizini tashkil qilgan. Shunday ekan, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda tijorat banklarining ahamiyatini yanada oshirish maqsadga muvofiqdir. Xususan tahlillarimiz ko'rsatadiki, moliyaviy muassasalarni qishloq xo'jaligi sub'ektlariga ko'rsatayotgan xizmatlarda minibanklarning ahamiyati katta.

### **Respublika bo'yicha 2010 yilda fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlari sonining tarkibiy o'zgarishlari**

**2.2.1-jadval**

<b>Infratuzilma obyektlari</b>	<b>2006 y.</b>	<b>2007 y.</b>	<b>2008 y.</b>	<b>2009 y.</b>	<b>2010 y.</b>
Mini bank	895	1207	1094	1478	1179
Muqobil MTI	1562	1779	1777	1757	1720
Miniral o'g'itlar sotish shoxobchasi	1051	891	928	935	917
Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi	1271	1676	1676	1712	1711
YOMM sotish shoxobchasi	1110	1340	1373	1389	1377
Qishloq xo'jalik mahsulotlari sotish shoxobchasi	381	443	424	424	424
Zooveterinariya punktlari	581	2180	2278	2411	2540
Axborot ta'minoti va konsalting xizmati ko'rsatish shoxobchalari	317	295	300	300	301
Transport xizmati ko'rsatish shoxobchasi	77	82	82	82	82

Tara idish va qadoqlash materiallari bilan ta'minlash shaxobchalari	73	78	78	78	78
Agrofirmalar	195	203	193	262	269

2.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki respublika bo'yicha 2011 yilda fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlari sohasida ancha tarkibiy o'zgarishlar bo'lgan. Xususan, fermer xo'jaliklari yer maydonlarini muqobillashtirish ularning sonini qisqarishiga natijada fermerlarga bank xizmatlarini taklif etuvchi minibanklar sonining ham qisqariga olib keladi. Zero, ularning soni 2010 yilda 1179 tani tashkil qilgan va bu ko'rsatkich yoki 20,2 foizga qisqargan. Bu ko'rsatkich muqobil MTP larga nisbatan 37 tani yoki 2,2 foizga, mineral o'g'it shaxobchalari 18 taga yoki 2,0 foizga YOMMM sotish shahobchalari 12 taga yoki 0,9 foizga qisqargan. Faqat agrofirmalar soni 2010 yilda 269 tani tashkil qilgan va bu ko'rsatkich 2006 yilga nisbatan 74 taga, 2008 yilga nisbatan 76 taga ashgan.

Biroq fermer xo'jaligida faoliyat ko'rsatmayotgan sub'ektlar shu xududda muyyan iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga va daromad topishga haqli, shunday ekan minibanklar sonini kamaytirish o'rniga ularning hizmat turlarini ko'paytirish va sifatini yaxshilash davr talabi. Ushbu moliyaviy muassasalar tarkibida Qashqadaryo viloyatida tashkil etilgan tijorat banklari va ularning minibanklari foliyati ham kuzatiladi. Biroq tahlillarimiz ko'rsatadiki, ular tomonidan taklif etilayotgan bank xizmati sifati kutilgan darajadan ancha past. Xususan, viloyat Markaziy banki tomonidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar miqdori, banklarga kelib tushadigan talabga asosan taxminan 30 foizga amalga oshirilmayapti. Shu bilan birga o'tgan yaqin to'rt besh yil ichida tijorat banklari tomonidan moddiy texnika bazasi ta'minoti past bo'lgan, o'zining qo'shimcha kapitaliga ega bo'lmagan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga asoslanmagan holda kredit ajratish holatlari ham bo'lgan. Ularni aksariyati qarzdorlar tomonidan belgilangan majburiyatlarning to'laqonli va o'z muddatida amalga oshirilmasligi natijasida muammoli kreditlar rentabelligining o'ta past darajada ekanligi tufayli bugungi kunda o'z faoliyatini to'xtatib, bankrotlikka yuz tutmoqda.

Ajratilgan kreditlarning muddatida qaytmasligiga ko'pgina sabablarni misol qilib keltirish mumkin. YA'ni:

- qarzdorlarining bank kreditini olib ishlatishda yetarli tajribaga ega misol qilib keltirish mumkin, yangi kredit va uning mohiyatini yaxshi tushunmasligi;
- ba'zi bir qarzdorlarning ataylab kreditini o'z maqsadiga ko'ra ishlatilmasdan, o'zining ehtiyojiga yoki boshqa bir qarzlarni yopishga ishlatilishi;
- yangi tashkil etilayotgan kichik biznes sub'ektlarining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda yetarli tajribaga ega emasligi;
- kredit bo'limi xodimlarining kredit xujjatlarini tahlil qilishdagi kamchiliklari va shunga o'xshash boshqa sabablar mavjud.

Natijala tijorat banklari ajratilgan kreditlarni undirishda ko'pgina qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Muddati o'tgan qarzdorlikni undirish oylab,

gohida esa yillab vaqt talab etadi. Ba’zida banklar tomonidan ko‘riladigan boshqa amaliy va huquqiy choralar ham kerakli natijalarni bermaydi. Bugungi kunda sud ijrochilik tizimining samarasiz ishlashi natijasida berilgan kreditlarni qonuniy yo‘llar bilan qaytarib olish imkoni ancha past. Natijada tijorat banklari undirilmagan qarzdorlikni yopish uchun o‘z daromadlarini hisobdan 100 foizlik zahira yaratib, ushbu muammoli kreditlarni hisobdan chiqarmoqda. Jumladan tijorat banklari paxta va g‘alla hosili yetishtirishini Moliya vazirligi qoshidagi maxsus jamg‘arma hisobidan imtiyozli kredit qarzlarni, shuningdek, jamg‘arma oldidagi qarzdorlikni bank hisobidan yopmoqdalar. Bu esa banklarning rivojlanishiga muammolarining vujudga kelishi sabab bo‘ladi.

Tijorat banklari hozirgi kunda yuqoridagi kabi holatlarning oldini olish maqsadida quyidagi ko‘rstilgan talablarga javob bergan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga alog‘ida shartlar asosida kreditlar ajratishi maqsadga muvofiqdir:

- moliyaviy hisobotlarga asosan likvidligi balansga, ijobiy kreditlash koyeftqentlarga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga;
- moliyaviy barqaror va hisob varag‘i orqali doimiy mablag‘ aylanmasiga ega bo‘lgan sub’ektlariga;
- o‘z sohasida yetarli tajribaga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlariga.

Biz tadqiqotlarimiz jarayonida tijorat banklari tomonidan qishloq xo‘jaligini moliyalashda bevosita ishtirok etayotgan tijorat banklarining reytinglarini xususiy holda aniqlashga harakat qildik va xulosalarimiz natijasiga ko‘ra OATB “Agrobank” tarmoqdagi eng samarali bank sifatida e’tirof etildi. Chunki, bugungi kunda banklarning moliyaviy imkoniyatlarini oshirishda nafaqat ichki imkoniyatlardan, balki uzoq muddatga mo‘ljallangan foiz stavkalari past bo‘lgan xorijiy bank kreditlarini institutsiya sifatida jalb etish va foydalanish ustuvor vositalardan biri hisoblanadi. ushbu holat OATB “Agrobank” faoliyatida ancha yuqori (2.2.2-rasm).

**OATB “Agrobank” tomonidan jalb qilingan chet el kredit liniyalari to‘g‘risida**

<b>15,5 mln AQSH dollari</b>	<b>Xalqaro tiklanish va Taraqqiyot banki (XTTB)</b>
<b>15 mln AQSH dollari</b>	<b>Evropa Tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB)</b>
<b>55,5 mln AQSH dollari</b>	<b>Osiyo taraqqiyot banki (OTB)</b>
<b>3,3 mln AQSH dollari</b>	<b>Germanjyaning KfV banki</b>
<b>9,2 mln AQSH dollari hamda 12,4 mlrd so‘m</b>	<b>Xitoy Xalq Respublikasining Eksimbanji</b>
	<b>Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU) mablag‘lari</b>

2.2.1-rasm. OATB “Agrobank” tomonidan jalb qilingan chet el kredit liniyalari tahlili

Rasmdan ko‘rinadiki, bir qator chet el kredit liniyalari bankda ochilgan bo‘lib, bularning tarkibidagi XTTB ham mavjud bo‘lib, bu bank 40 yil muddatga 10 yil imtiyozli davr bilan yillik 5-7 foiz bilan kredit ajratadigan xalqaro moliyaviy muassasa hisoblanadi.

OATB “Agrobank” tomonidan fermer xo‘jaliklarini kreditlashda bankning o‘z mablag‘lari hisobidan PQ-1047 sonli qaroriga asosan oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishga 62,2 mlrd so‘m, PQ-1050 sonli qaroriga asosan no oziq-ovqat iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishga 47,6 mlrd so‘m kredit ajratilgan. Kichik biznes sub‘ektlari, shuningdek, fermer xo‘jaliklariga 277,0 mlrd so‘m, shu jumladan mikrokreditlar 57,2 mlrd so‘m imtiyozli kreditlash maxsus jamg‘armasidan 3,7 mlrd so‘m, tadbirkor ayollarga 28,3 mlrd so‘m kredit ajratilgan.

Mazkur bank Moliya vazirligi huzuridagi “Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisob-kitob jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan g‘alla hosilini imtiyozli kreditlashga 2010 yilda 154,9 mlrd so‘m, paxta hosilini imtiyozli kreditlashga 509 mlrd so‘m “Ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish” va “Dehqon va fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash” jamg‘armasi kredit liniyasi hisobidan 5,8 mlrd so‘m, halqaro va xorijiy kredit liniyalaridan 98,5 mln AQSH dollari 4,1 mln Yevro hamda 124 mlrd so‘mlik moliyalash tadbirlarini amalga oshirgan.

Mutaram prezidentimiz I.Karimov ta‘kidlaganlaridek, “Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Surxandaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari, shuningdek Markaziy Farg‘ona hududi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida irigatsiya hamda meliratsiya inshootlarini qayta tiklash uchun 2010 yilda xalqaro institutlarning 62 mln dollordan ziyod mablag‘lari jalb qilindi va o‘zlashtirildi”<sup>11</sup>.

Aynan ushbu tadbirlarga yo‘naltirilgan chet el kredit liniyalari shu bankda ochilgan bo‘lib, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki kredit liniyasi hisobidan “Qishloq xo‘jaligi korxonalarini qo‘llab-quvvatlash” loyihasi doirasida kredit ajratilishi yo‘lga qo‘yilgan. Aynan OATB “Agrobank” Qashqadaryo viloyat boshqarmasi ham ushbu amalga oshirmoqda. Mazkur loyiha Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 27 avgustdagi №196 sonli qarori hamda 2009 yil Andijon, Buxoro, Samarqand, Sirdaryo, Qashqadaryo, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida kreditlar 1 yildan 10 yilgacha bo‘lgan muddatga ajratilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, loyihaning xususiyatlaridan kelib chiqib, 9 oydan 3 yilga muddatda imtiyozli davr beriladi. Bu loyihani amalga oshirish yuzasidan don o‘rish kombayinlari, xaydov va chopiq traktorlari, shuningdek qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash uchun uskunalar, chorvachilik va dehqonchilikni rivojlantirish maqsadila jami 9,2 mln AQSH dollari hamda 12,4 mld so‘m kreditlar ajratilishi ko‘zda tutilgan.

---

<sup>11</sup> Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish hamda xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. // Marifat, 2011 yil 22 yanvar 3-bet.

**Osiyo Taraqqiyot bankining OATB “Agrobank” tomonidan Jalb qilingan loyihalari to‘g‘risila**

<b>10,3 mln AQSH dollari</b>	<b>Mikromoliyalashtirishni rivojlantirishga</b>
<b>20,0 mln AQSH dollari</b>	<b>Kichik va mikromoliyalashtirishni rivojlantirish faza-2 loyihasi</b>
<b>10,2 mln AQSH dollari</b>	<b>Amuzang mashina kanalini rekonstruksiya qilishga</b>
<b>15,0 mln AQSH dollari</b>	<b>Uzoq muddatli investitsion loyihalarni moliyalashtirishga</b>

OATB “Agrobank” tomonidan jalb qilingan chet el kredit liniyalari tahlili.

### **2.3. Fermer xo‘jaliklari bilan moliya muassasalari o‘rtasidagi tashkiliy va huquqiy meyoriy hujjatlarning ijrosi va unga tasir etuvchi omillar tahlili.**

Fermer xo‘jaliklarini tashkil etishda bozor tamoyillariga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ularning mulkiy huquqlarini himoyalashda iqtisodiyotdagi monopoliya va monosopiya holatlariga to‘liq barxam berilmayapti. Bu holatlar esa fermer xo‘jaliklarini faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy meyoriy axtlarni, xususan shartnomaviy munosabatlarni amaliyotga to‘liq ishlamasligiga olib kelmoqda. Masalan fermerlarga xizmat kursatuvchi infratuzilma tarmog‘idagi monapoliya ko‘rinishlari nafaqat tarmoqda raqobat muxitini cheklab quymoqda, balki shartnomaviy munosabatlarning buzilishiga xam sabab bulmoqda. Bu holat o‘z navbatida shartnomalarda fermerlarning burchlarini, xizmat kursatuvchi monapol tarmoqlarning huquqlarini oshirishga olib kelmoqda, yani kursatilgan xizmatning sifati va uni yakuniy natijaga ko‘rsatgan tasirning qanday bulishidan qatiy nazar fermerlar xisobraqamidan mazkur tarmoqlarga xizmat xaqqi qatiy undirilmoqda.

Fermer xo‘jaliklari o‘z faoliyatini amalga oshirishda huquq va erkinliklarini qay darajada bilishlari muhim rol o‘ynab, majburiyatlarini to‘la anglagan holda bajarish, bozor munosabatlari shakllanayotgan davrda ishlarni tashkil qilish va yuritishning huquqiy asoslarini o‘rganish, qonun va meyor hujjatlarining mazmun mohiyati, o‘zgarishlar va malumotlarni qishloq xo‘jaligi maxsulotlari yetishtiruvchilarga tushinarli tarzda yetkazish lozim.

Respublika miqyosida fermerlar bilan iqtisodiy munosabatga kirishuvchi boshqa subektlar urtasida tuziladigan shartnomalarning namunaviy shakli ishlab chiqilgan bo‘lsada, joylarda shartnomalarni tuzish jarayonida moliyaviy sharoitlardan kelib chiqqan holda, shartnomada kursatilgan bazi shartlar etiborga olinmagan holatlar uchramaydi.

Fermer xo‘jaliklarining faoliyati, yerga egalik qilish, undan foydalanish, tasarrub etish xamda shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish yuzasidan xukumatimiz tomonidan qator qonun va meyor axtlar qabul qilingan. Ularning joylardagi ijrosini taminlashda va bajarishida huquqiy madaniyatni yetarli darajada shakllanmaganligi, huquqiy hujjatlarni mazmunini tushinmaslik yoki yetarli darajada tushinmaslik natijasida qator muammolar kelib chiqmoqda. Xususan, “yer kodeksi”, “fermer xo‘jaligi” tug‘risida, “xo‘jalik yurituvchi subektlarning shartnomaviy, huquqiy bozori tug‘risida”gi va boshqa qonun hujjatlarining tuliq xayotga xayotga tadbiq yetilayotganligi kuzatilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xar bir fuqaroning mulkdor bo‘lishi, mulkga bo‘lgan egalik, foydalanish, tasarruf etish huquqlarini amalga oshirishda cheklanishlar bulmasligi va bu davlat tomonidan kafolatlanishi belgilab quyilgan.

“Yer kodeksi”ning 39-moddasida “yerdan foydalanuvchi, ijarachi yerdan foydalanish maqsadiga muvofiq mustaqil xo‘jalik yuritishi ...”, shuningdek “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonun hujjatlarida fermer xo‘jaligi faoliyatining asoslari:

- o‘z faoliyati yunalishlarini, ishlab chiqarish tuzilmasi va xajimlarini mustaqil ravishda belgilash;
- xo‘jalik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning qonunlarda takidlanmagan xar qanday turi xamda qishloq xo‘jaligi maxsulotini qayta ishlash va realizatsya qilish bilan shug‘illanishga xaqiligi;
- xo‘jalik tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqa shakllarda xo‘jalik yurituvchi korxonalar bilan teng sharoitda amalga oshirishni belgilab qo‘yilgan.

Fermerlar faoliyatida yeng kup uchraydigan muammolar, fermerlar bilan huquqiy iqtisodiy aloqada bo‘lgan YOMM, MTR, o‘g‘it sotish, suv yetkazib berish, bank xizmatlarikursatuvchi infra tuzilma tarkibidagi tashkilotlar bilan shartnomalarning bir tomonlama kurinishida tuzilganligi va imrolonganligi, natijada tuzilgan shartnomalarning shartlarisifatsiz bajarilayotganligi, majburiyatlar asosan xizmat kursatuvchi tashkilotlar tomonidan to‘liq bajarilayotganligi malum buldi.

Viloyat xududidagi aksariyat fermer xo‘jaliklari, ularga xizmat kursatuvchi korxonalar urtasidagi shartnomaviy huquqiy munosabatlar jumladan tuzilgan shartnomalarning qonuniyligi va ularning bajarilishi taxlil qilinganda, aksaryat fermer xo‘jaliklari faoliyatida (masalan, Nishon tumanidagi “Kenjayev Bobonazar”, “Uzoqov Abdulla”, “Raximov Shukurali” fermer xo‘jaliklarida o‘rganib chiqilganda) quydagi holatlar aniqlangan: - shartnomalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun va meyor hujjatlariga Adliya vazirligida huquqiy yekspirtiziyadan utkazilgan namunaviy hujjat tulovlarga tuliq mos yemasligi ;

- shartnoma tuzişda ixtiyerilik, tenglik va foyda kurishga qaratilgan kelishmaga yerishish tamoillariga etibar qilaganligi;

- shartnomalarning maqsad va mazmuni fermer xo‘jaliklarining tez, sifatli va bozorbop qishloq xo‘jaligi maxsulotini yetishtirishni targ‘ib qilish, raxbatlantirishga qaratilmasdan, yetkazib berilgan moddiy texnika rsurlari va bajarilgan xizmatlar uchun xisob – kitob qilish ko‘zda tutilganligi;

- shartnomada belgilab quyilgan taraflarning huquq va majburiyatlari ishlab chiqaruvchining yemas balki xizmat kursatuvchi korxonaning manfaatlaridan kelib chiqib tuzilganligi yoki kuproq ularni huquqy himoya qilishga qaratilganligi, taraflarning huquq va majburiyatlari 4 yoki 5 banddan iborat bo‘lib xizmatlarni bajarish muhim talablari, shart – sharoitlari amalga omirish usullari va vositalri, sifasi, miqdori, samaradorlik, shartnomani amal qilishning va xizmatlar kursatishning aniq sanalari, amalga oshirilgan ishlarning natijasiga kura kelib chiqadigan masalalar tuliq bayon etilganligi;

- shartnoma shartlarini bir tomonlama, 2 tomonlama taraflarning ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan hollarda ko‘ra uzgartirish tuntarish va bekor qilish fors – mojoy holatlari kursatilmasdan qolganlik;

- shartnomada taraflarning javobgarligi va nizolarni xal etish tartibi, taraflarning uzaro murosaga kelishi asosida yemas davlat tashkiloti bo‘lgan xokimlik idoralari yoki vakoladli sudlar tomonidan xal qilinishi bayon yetilgan.

Shuningdek viloyatning bazi fermer xo‘jaliklari faoliyatidagi shartnomaviy huquqiy munosabatlarning natijalari tanlanib taxlil yetilganda esa, shartnomaviy

majburiyatlar tula qonli bajarilmaganligi, ortiqcha rasmiyatchiliklar va qog'ozbozlikka yul quyilganligi, xizmatlar sifatli amalga oshirilmaganligi oqibatida ko'zda tutilgan va xisob kitoblarga ko'rsatilmagan ortiqcha sarf xarajatlar kelib chiqishiga sabab bulgan.

Viloyat miqiyosida fermer xo'jaliklarida kuplab iqtisodiy xo'jalik nizolari uchrab, ularning ijobiy xal qilinishi fermerlarning iqtisodiy barqaror rivojlanishiga qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirishda ijobiy natijalarga yerishishiga ko'mak bo'ladi.

Amaliyotdan va jaxon tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsak, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarini o'rtasida shartnomaviy huquqiy munosabatlar yuzasidan kelib chiqadigan muammolarni yechishda va nizolarni adolatli xal qilishda, shartnoma, majburiyatlarini bajarishd, kuproq xo'jalik yurituvchi subektning o'zlariga yetiborini qaratib nizolashayotgan ikki yoki undan ortiq taraflarning muvaffaqt komisiyalarini tuzish yoki muvaffaqt xokimlik sudlari tashkil etish imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq buladi.

Birinchidan, Respublikamiz Oliy majlisi tomonidan 2006 –yil 25 – avgustdagi “xokimlik sudlari tug'risida”gi qonun hujjatining amaldagi ijrosi taminlanadi va viloyat xududlaridagi amaliy samarasi kuzatiladi.

Ikkinchidan nizolashuvchi korxonalarining o'zlari tomonidan tanlangan xokimlik sudlari qonunchilik, mustaqillik, holislik asosida o'zaro nizolarni xal etishda davlat idoralarining aralashuvisiz nodavlat organ tarafida maydonga chiqadi.

Uchinchidan, kelib chiqqan nizo o'sha joyning uzida kurib chiqilib nizolashayotgan taraflarning ortiqcha sansolarlik, rasmiyatchilik va sarf xarajatlar kelib chiqishini oldini oladi.

To'rtinchidan fermer xo'jaliklarning ishni to'g'ri xal qilishiga ishonch ishonch xissini keltirib chiqaradi, moddiy manaviy jixatdan ko'mak beradi.

Ushbu qonunning amaldagi ijrosi, xo'jalik yurituvchi subektlarning o'zaro o'zaro xamjixat bulib ishlarni ishlarni tashkil qilishida shartnomaviy huquqiy munosabatga kurishishida xamda nizolarni kelishuv yuli bilan xal qilinishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

## **II-bob bo'yicha xulosa.**

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolari mavjud bo'lib, unga birqancha omillar tasir kursatadi. Xususan, fermerlar tomonidan yetishtirilayotgan strategik axamyatga ega bo'lgan paxta va g'alla xosilining 50 foiziga nisbatan davlat buyurtmasi shakllantirilgan bo'lib, unga sarflanadigan xarajatlar davlat mablag'i xisobiga moliyalanmoqda. Bunda viloyat Moliya boshqarmasi davlat xaridi buyicha sarflanadigan mablag'larning smitasini turadi va taqsimlaydi, xamda viloyat fermer xo'jaliklarini Moliya vazirligi xuzuridagi Jamg'arma xisobidan davlat extiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik maxsulotlari ishlab chiqarishini imtiyozli kriditlar orqali moliyalashini xam amalga oshiradi. Shu kunning ustivor vazifalaridan biri bu qishloq xo'jaligini rivojlantirishda moliyaviy muassasalarning rolini yanada oshirishdan iborat.

Fermer xo'jaliklari bilan moliya muassasalari o'rtasidagi tashkiliy va huquqiy meyoriy hujjatlarning ijrosida shartnomaviy munosabatlarning kerakli tartibda tashkil yetilayotganligi moliyaviy muammolarni yanada oshishiga sabab bulmoqda.

### **III-Bob. Mintaqa qishloq xo'jaligini rivojlantirishda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish y o'llari.**

2006 yil 1 oktabr holatidagi malumotlarga ko'ra, viloyatda mavjud bo'lgan mikroiridit xizmati kursatuvchi 4 ta mikro kredit tashkilotining kredit portfilini 600 mln so'm atrofidagi xajmga ega bo'lib asosan 5 ta tumandagi qariyb 2200 istimolchiga o'z xizmatlarini ko'rsatgan. Yuqorida keltirib o'tilgan qonun hujjatlarining elon qilinishi va respublika Markaziy banki tomonidan mikroiridit tashkilotlarini litsinziyalash, ular tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy opiratsiyalar bo'yicha yangi taxrirdagi nizom va yuriqnomalarning ishlab chiqilishi viloyatdagi mikroiridit tashkilotlarining ishlab chiqilishi viloyatdagi mikroiridit tashkilotlari qonunga muvofiq maxalliy davlat boshqaruvi organlaridan va respublika markaziy bankidan ruyxatdan o'ishlari lozim.

Mikroiridit tashkilotlarini tashkil etishda respublika markaziy banki tomonidan namunaviy nizom ishlab chiqildi va ushbu nizomga ko'ra taqdim yetiladigan hujjatlar tuplami yengillashtirildi. Shunga qaramasdan jismoniy shaxslar, kam taminlangan oilalarning mikroiridit tashkilotlari xizmatiga bo'lgan talabi ortib borayotgan bir paytda, viloyatda ayniqsa tumanlarda bu kabi tashkilotlarni tashkil etish nobank muassasalari xususan, mikroiridit tashkiloti va kredit uyishmalari faoliyatini rivojlantirishda bir qator muammolar vujudga kelmoqda. Yani;

- viloyatda tashkil yetilgan mikroiridit tashkilotlar sonining kamligi;
- faoliyat kursatuvchi mikroiridit tashkilotlar faoliyat davrida amaldagi qonunchilikhujjatlarini to'liq bilmaslik natijasida
- faoliyat kursatish doirasi va xizmat turlarini kengaytirish uchun mablag'ning yetarli yemasligi;
- tijorat banklari tomonidan Mikroiridit tashkilotlariga bank xizmatlari ko'rsatishdagi muammolar;
- Mikromoliyaviy muassasalar faoliyatiga bo'lgan ishonchning yuqligi va boshqa muammolarning mavjudligi ushbu muassasalarning rivojlanishiga salbiy tasir kursatmoqda;

Viloyatda ana shunday mikroiridit tashkilotlarni kupaytirish maqsadga muvofiqdur.

### **III-bob buyicha xulosa.**

Mintaqa qishloq xo'jaligini rivojlantirishda molyaviy munosabatlarni takomillashtirishda qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarni kreditlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvoshiqdir. Bunda moliyalash tashkilotlari va kredit uyishmalarining kulamini kengaytirishni tashkil qilamiz. Chunki ular kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining loyixalarini moliyalashtirish xamda kichik xajmdagi kreditga bo'lgan talabni qondirishda tijorat banklari bilan raqobat muxitini vujudga keltiradi.

## **Xulosa va takliflar.**

Bitiruv malakaviy ishi “mintaqa qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolari” mavzusida Qashqadaryo viloyat Moliya boshqarmasi misolida bajarildi va quyidagi xulosalar va takliflar qilindi.

Xulosalar:

- Respublika iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishni mintaqaviy xususiyatlari va undagi moliyaviy muammolarni tadqiq etish obektiv zaruriyat xisoblanadi. Chunki qishloq xo‘jaligining uziga xos xususiyatlari respublikamizning turli mintaqalarida turlicha namoyon bulib, moliyaviy mablag‘larga nisbatanoshishiga sabab bulmoqda. Xususan, Qashqadaryo viloyati respublikamizning janubiy mintaqasida joylashgan bo‘lib, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda vegetotsiya davrining yetarliligi ijobiy hol xisoblansa, ayni vegetatsiya davrida suv tanqisligi muammosi va yerlarning miliorativ holatining yomonlashib borayotganligi salbiy holat sifatida qushimcha moliyaviy mablag‘lari talab qilmoqda.

- Respublika qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxtlar iqtisodiyotga iqtisodiy samaradorlikni taminlamoqda. Zero qishloq xo‘jaligida dexqon va fermer xo‘jaliklarining tashkil yetilishi qishloq xo‘jaligida xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subektlari tomonidan ishlab chiqarishni yulga quyish orqali turmush darajasini oshirish omili bo‘lib xizmat qilmoqda.

- Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolari mavjud va ularning aniqlashtirib tizimlashtirish dolzarb masala xisoblanadi xususan, tarmoqdagi mavjud muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan omillar buyicha shartli ravishda ichki guruxga ajratdik: Birinchi guruxdagi omillarni yuzaga kelishi bevosita fermerlarga yerga nisbatan xususiy mulkchilik xissini shakllanishi bilan moliya boshqarmasi viloyat qishloq xo‘jaligini maxalliy va davlat budjeti bilan moliyalovchi asosiy muassasa xisoblanadi.

Moliya boshqarmasi bajarayotgan funksiyalari tarkibiga viloyat fermer xo‘jaligining moliya vazirligi xuzuridagi jamg‘arma xisobidan davlat extiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jalik maxsulotlari ishlab chiqarilishini imtiyozli kriditlash orqali moliyalashni xam amalga oshirmoqda.

Biz tatqiqotlarimiz jarayonida tijorat banklari tomonidan qishloq xo‘jaligining moliyalashda bevosita ishtirok yetayotgan tijorat banklarining reytinglarini xususiy holda aniqlashga xarakat qildik va xulosalarimiz natijasiga kura OATB “Agrobank”ni tarmoqdagi yeng samarali bank sifatida etirosh yetdik. Bankda xorijiy kridit liniyalari ochilganligi bilan birga, kichik biznes subektlari, yani fermer xo‘jaliklariga 277,0 merd. so‘m, shu jumladan mikrokrilitlar 57,2 merd. so‘m, imtiyozli kriditlash maxsus jamg‘armasidan 3,7 merd. so‘m kredit ajratilgan.

Fermer xo‘jaliklari bilan moliya muassasalari o‘rtasidagi tashkiliy va huquqiy meyoriy hujjatlarning ijrosi va unga tasir etuvchi omillarni taxlil qilish va shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish taklif qilamiz. Chunki fermerlarga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma tarmog‘idagi monopoliya ko‘rinishlari nafaqat

raqobat muhitini cheklab qo‘ymoqda. Balki, shartnomaviy munosabatlarni buzilishiga sabab bo‘lmoqda.

Viloyat miqyosida fermer xo‘jaliklarining shartnomaviy, huquqiy ba‘zasini ham faoliyatining huquqiy iqtisodiy asoslarini takomillashtirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

- fermer xo‘jaliklari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va erkin amalga oshirish mustaqil holda shartnomaviy munosabatlarni kirishish uchun mahalliy davlat hokimiyat idoralari tomonidan qo‘llab-quvvatlash;
- yoqilg‘i moylash materiallari mi niral o‘g‘it yetkazib beruvchi, urug‘lik yetkazib beruvchi hamda texnika vositalari bilan ta‘minlovchi xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar bilan iqtisodiy aloqalarni tenglik asosida o‘rnatish, bunda mahalliy hokimiyat organlariga ko‘magiga tayanish.;
- qishloq xo‘jaligi korxonalarini va fermer xo‘jaliklari mas‘ul shaxslari o‘rtasida shartnomaviy huquqiy munosabatlarni amalga oshirishga uchraydigan muammolar, qishloq xo‘jaligi sohasida modaniyatni oshirish yuzasidan doimiy rafishda ilmiy seminarlar amaliy uchrashuvlar tashkil qilish.

Uylaymizki, yuqorida qayt etilgan xulosa va takliflar mahalliy budjet organlari hisoblangan Moliya boshqarmasi tomonidan inobatga olinsa, mintaqqa qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning moliyaviy muammolari o‘z yechimini topadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

### I. Rasmiy materiallar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi taxriri)- T.: O'zbekiston, 2003.
2. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni (Yangi taxriri). T.: 2004 yil 24 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to'g'risida"gi Qonuni T.: 2006 yil 26 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining "Bank ishi to'g'risida"gi Qonuni. Soliq to'lovchining jurnali, 2003 yil 10-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 2005 yil 5 oktabrdagi PF-3665. O'zbekiston Respublikasi Qonuni hujjatlar to'plami. 2005 yil 47-48-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risida 2008 yil 19 nayabr, F-4010-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashni ta'minlash va ekspert salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2009 yil. 28 noyabr, PF-4058-son.
8. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillash tirishning va uning noqonuniy etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi farmoni. 2005 yil.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini 182-sonli qarori, 14.04.2004 y. "Muddati o'tkazib yuborilgan dibitorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartirish va budjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha Respublika komessiyasi to'g'risida"gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari 2004 yil 4-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori. 2010 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida. 2011 yil 13 fevral.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Majlisining qarori 2010 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida. 2011 yil 13 fevral.
12. O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasida elektron to'lovlar tizimi bo'yicha hisob-kitolar yuritish to'g'risida Nizom TTAD, 1010. 19.02.01.
13. "Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini, shuningdek kichik sub'ektlarini milliy valyutada kreditlash tartibi" 2000 yil 07.03 №907.
14. Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lgusi xosilni garovga olgan holda kredit berish tartiblari to'g'risidagi Nizom. 2004 yil 16 aprel №1337.

15. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga budjetdan tashqari jamg'armalar va mikrocreditbank kredit liniyalari hisobidan mikrocreditlar berish tartibi to'g'risidagi Nizom. 2006 yil 18 avgust №-1548.

16. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo'lida" T.: O'zbekiston, 1995 yil 11-bet.

17. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muammosi, kredit institutsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. T.: O'zbekiston.

18. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005.

19. Karimov I.A. Asosiy vositamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz varofonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O'zbekiston, 2010 yil, 80-bet.

20. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va maralari. T.: O'zbekiston, 2009 yil.

21. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish va xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. // Ma'rifat, 2011 yil 22 yanvar.

22. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada erkinlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. // Milliy tiklanish, 2010 yil 16 noyabr.

23. Karimov I.A. Eng asosiy mezon hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009 yil 24-bet.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma TDIU Iqtisodiyot, 2009 yil 106-bet.

## **II. Maxsus adabiyotlar**

25. Abdullayeva Sh.Z., Navruzova K.N. Bank hisobi. T.: O'zbekiston foylasuflari milliy jamiyati nashriyoti 2006.

26. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. T.: Moliya 2000.

27. Akromaov E. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. T.: Moliya 2004.

28. Vahobov A., Ibrohimov A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. T.: Sharq 2005.

29. Jo'rayev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish T.: Norma, 2009.

30. Malikov T., Xaydarov N. Moliya Umumdavlat moliyasi. T.: Moliya 2009.

31. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodi. T.: 2010.

32. Ergashev A. Sobiqtadam karvon T.: Ma'naviyat 2010.

33. Holmatov V.A. Tejamkorlikning nazariy asoslari va amal qilish mexanizmlari.: -i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss. Aletoref. T.: 2008. 17-18 bet.

## **III. Internet saytlari**

34. [www.stat.uz](http://www.stat.uz). O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo'mitasining rasmiy sayti.

35. [www.ZiyoNet.uz](http://www.ZiyoNet.uz)

36. [www.qmii.uz](http://www.qmii.uz)